

Oriental Journal of Education



PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF ACTIVE GAMES IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Gulhayo Muminova

*Master's degree holder of Chirchik State Pedagogical University
Chirchik, Uzbekiston*

ABOUT ARTICLE

Key words: primary school, physical development, active games, physical education, physical activity, sports orientation.

Received: 15.02.26

Accepted: 16.02.26

Published: 17.02.26

Abstract: This article analyzes the pedagogical importance of active games in the physical development of primary school students. The study substantiates the role of active games in increasing students' physical activity and developing physical qualities such as speed, agility, and endurance. In addition, the educational and socio-psychological potential of active games is revealed, and the necessity of their systematic and purposeful use in physical education classes is emphasized. The article also presents practical recommendations aimed at improving physical education in primary schools.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING JISMONIY RIVOJLANISHIDA HARAKATLI O'YINLARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Gulhayo Muminova

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti
Chirchiq, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, jismoniy rivojlanish, harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya, jismoniy faollik, sportga yo'naltirish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishida harakatli o'yinlarning pedagogik ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida harakatli o'yinlarning o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, tezkorlik, chaqqonlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi roli asoslab beriladi. Shuningdek, harakatli o'yinlarning tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari ochib berilib, ularni jismoniy tarbiya darslarida tizimli va maqsadli qo'llash zarurligi asoslanadi. Maqolada boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ФИЗИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ***Гулхаё Муминова**Магистр**Чирчикского государственного педагогического университета**Чирчик, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: начальная школа, физическое развитие, подвижные игры, физическое воспитание, двигательная активность, ориентация на спорт.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическое значение подвижных игр в физическом развитии учащихся начальных классов. В ходе исследования обосновывается роль подвижных игр в повышении двигательной активности детей, развитии таких физических качеств, как быстрота, ловкость и выносливость. Раскрываются воспитательные и социально-психологические возможности подвижных игр, а также необходимость их системного и целенаправленного применения на уроках физического воспитания. В статье представлены практические рекомендации по совершенствованию физического воспитания учащихся начальной школы.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda bolalarning jismoniy faolligi tobora kamayib borayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarning ko'p vaqtini o'tirib bajariladigan faoliyatlar egallashi ularning jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatga bo'lgan ehtiyojni tabiiy, qiziqarli va samarali usullar orqali qondirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda harakatli o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos, samarali va pedagogik jihatdan asoslangan vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Aynan shu davrda bolalarda sog'lom turmush tarziga oid dastlabki ko'nikmalar, harakat madaniyati va jismoniy faollikka bo'lgan ijobiy munosabat shakllanadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonidagi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim tizimida jismoniy tarbiya faqat yordamchi fan sifatida emas, balki shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Harakatli o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng tabiiy va samarali faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik, epchillik, muvozanatni saqlash kabi jismoniy sifatlari rivojlanadi. Shu bilan birga, harakatli o'yinlar bolalarda jamoada ishlash, intizom, o'zaro hamkorlik va mas'uliyat kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'yin jarayonida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortib, ularning faol ishtiroki ta'minlanadi, bu esa ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich maktab yoshi (6–10 yosh) bolalarning organizmi intensiv o'sish va rivojlanish bosqichida bo'lib, ushbu davr anatomik va fiziologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur yoshda suyak-to'qima tizimi yetarli darajada qotmagan, mushaklar elastik va bo'g'imlar harakatchan bo'lishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli bu davrda harakat faoliyati bolaning tabiiy ehtiyoji sifatida namoyon bo'ladi.

A.Abdullayevning ta'kidlashicha, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari hali to'liq shakllanmagan bo'lib, jismoniy yuklamalar yoshga mos, o'yin xarakterida tashkil etilishi lozim. Olimning fikricha, aynan harakatli o'yinlar fiziologik imkoniyatlarga mos keluvchi, ortiqcha zo'rqihsiz jismoniy rivojlanishni ta'minlovchi samarali vositadir.

Mening fikrimcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining anatomik-fiziologik xususiyatlarini hisobga olmagan holda tashkil etilgan jismoniy mashg'ulotlar bolalarda tez charchash, qiziqishning susayishi va hatto sog'liq bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, harakatli o'yinlar bolalar organizmining tabiiy rivojlanish ritmiga mos keladigan eng maqbul pedagogik vosita hisoblanadi.

Jismoniy rivojlanish tushunchasi inson organizmining morfologik va funksional jihatdan shakllanish jarayonini ifodalaydi. Pedagogik adabiyotlarda jismoniy rivojlanish bo'y, vazn, ko'krak qafasi hajmi, mushak kuchi, harakat koordinatsiyasi kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi.

Tadqiqotchi B.X.Xo'jayev jismoniy rivojlanishni bolaning sog'lom hayot faoliyatini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholab, uni tizimli harakat faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, boshlang'ich ta'lim davrida jismoniy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari harakatli o'yinlar orqali samarali rivojlantiriladi. Mening qarashimga ko'ra, jismoniy rivojlanishni faqat antropometrik ko'rsatkichlar bilan cheklash to'g'ri emas. Harakatga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi, bolaning o'z tanasini boshqarish qobiliyati va harakatdan zavq olishi ham jismoniy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlari sifatida baholanishi lozim. Aynan harakatli o'yinlar ushbu omillarni kompleks ravishda shakllantiradi.

Jismoniy faollik bolaning nafaqat jismoniy, balki aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixolog D.M.Mirzayevaning tadqiqotlarida jismoniy faolligi yuqori bo'lgan bolalarda diqqat barqarorligi, xotira hajmi va o'quv motivatsiyasi yuqori bo'lishi ilmiy asoslangan. Shuningdek, pedagog R.Safarov jismoniy faollikni bolaning umumiy rivojlanishida muvozanatni

ta'minlovchi omil sifatida ko'rsatib, harakatli o'yinlar orqali ijtimoiylashuv jarayoni tezlashishini alohida ta'kidlaydi. Mening fikrimcha, jismoniy faollik va umumiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik aynan o'yin faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki harakatli o'yinlar jarayonida bola bir vaqtning o'zida harakat qiladi, fikrlaydi, muloqotga kirishadi va qoidalarga amal qiladi. Bu esa jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishning uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Pedagogik adabiyotlarda harakatli o'yinlar bolalarning tabiiy harakat ehtiyojiga asoslangan, muayyan qoidalar asosida tashkil etiladigan va jismoniy hamda tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyat turi sifatida talqin etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun harakatli o'yinlar o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ular orqali jismoniy rivojlanish bilan birga ta'lim-tarbiyaviy vazifalar ham amalga oshiriladi. Sh.X.Xonkeldiyev harakatli o'yinlarni "bolaning harakat tajribasini boyituvchi, jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan birga ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi pedagogik vosita" sifatida baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, harakatli o'yinlarning pedagogik mazmuni ularning maqsadga yo'naltirilganligi va yosh xususiyatlariga mosligida namoyon bo'ladi.

Mening fikrimcha, harakatli o'yinlarning pedagogik mazmuni faqat harakat bajarish bilan cheklanmaydi. O'yin jarayonida o'quvchi qoidalarga amal qilishni, vaziyatga mos qaror qabul qilishni va o'z harakatini boshqalar harakati bilan muvofiqlashtirishni o'rganadi. Bu jihatlar harakatli o'yinlarni oddiy jismoniy mashqlardan tubdan farqlaydi va ularni samarali pedagogik vositaga aylantiradi. Boshlang'ich maktab yoshida jismoniy sifatlarning shakllanishi ayniqsa muhim bo'lib, bu jarayon asosan harakat faoliyati orqali amalga oshiriladi. Harakatli o'yinlar tezkorlik, chaqqonlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tadqiqotchi A.Q.Abdullayevning ilmiy izlanishlarida harakatli o'yinlar tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri ekanligi qayd etilgan. Olimning ta'kidlashicha, qisqa vaqt ichida tezkor harakatlarni talab qiluvchi o'yinlar markaziy asab tizimining faoliyatini faollashtiradi va harakat reaksiyalarini takomillashtiradi. Shuningdek, jamoaviy harakatli o'yinlar chidamlilikni oshirish bilan birga, bolalarda jismoniy yuklamaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Mening qarashimga ko'ra, harakatli o'yinlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi ustunligi ularning emotsional fonida namoyon bo'ladi. Bola o'yinni mashq sifatida emas, qiziqarli faoliyat sifatida qabul qiladi. Natijada u charchoqni kam sezadi, harakatlarni ixtiyoriy va faol bajaradi. Bu esa jismoniy sifatlarning tabiiy va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Harakatli o'yinlar jismoniy rivojlanish bilan bir qatorda, o'quvchilarning tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik kamolotida ham muhim o'rin tutadi. O'yin jarayonida bolalarda intizom, jamoada ishlash, o'zaro hurmat va mas'uliyat kabi ijtimoiy fazilatlar shakllanadi.

Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslari mazmunan o'yin faoliyatiga eng yaqin bo'lishi lozim bo'lgan ta'lim bosqichi hisoblanadi. Biroq amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari asosan an'anaviy mashqlarni takrorlashga yo'naltirilgan

bo'lib, harakatli o'yinlar ikkinchi darajali yoki vaqt yetishmasligi bahonasida cheklangan holda qo'llanilmoqda. Mening fikrimcha, ushbu holatning asosiy sababi harakatli o'yinlarning pedagogik imkoniyatlari yetarli darajada anglab yetilmayotganidadir. Ko'pincha o'yinlar "dam olish" yoki "darsni yakunlash" vositasi sifatida qaraladi, holbuki ularni asosiy didaktik va rivojlantiruvchi vosita sifatida qo'llash mumkin. Natijada dars jarayoni bolalar uchun qiziqarsiz, bir xil va mexanik tus olib, jismoniy faollikning tabiiy ehtiyoji to'liq qondirilmaydi.

Zamonaviy hayot tarzi, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi va o'tirib bajariladigan mashg'ulotlarning ko'payishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy faollikning pasayishiga olib kelmoqda. Bu holat nafaqat darsdan tashqari faoliyatda, balki jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ham yaqqol sezilmoqda.

Mening kuzatishlarimga ko'ra, o'quvchilarning harakatga bo'lgan qiziqishi ko'pincha o'yin motivatsiyasining to'g'ri shakllantirilmaganligi bilan bog'liq. Agar jismoniy tarbiya darsi bolaga emotsional qoniqish bermasa, u harakatni majburiy faoliyat sifatida qabul qiladi. Bu esa faol ishtirokning kamayishiga, passivlikning kuchayishiga olib keladi. Harakatli o'yinlar yetarli darajada qo'llanilmagan sharoitda bolaning tabiiy raqobat, qiziqish va o'zini namoyon qilish ehtiyoji qondirilmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, jismoniy faollikning pasayishi nafaqat tashqi omillar, balki pedagogik jarayonning noto'g'ri tashkil etilishi bilan ham bevosita bog'liq, deb hisoblayman.

Harakatli o'yinlarning samaradorligi bevosita ularni tashkil etuvchi o'qituvchining metodik savodxonligi va pedagogik mahoratiga bog'liq. Afsuski, amaliyotda ko'plab boshlang'ich sinf o'qituvchilari va jismoniy tarbiya o'qituvchilari harakatli o'yinlardan foydalanishni faqatgina tayyor o'yinlar ro'yxati bilan cheklashmoqda.

Mening fikrimcha, asosiy muammo o'qituvchilarning harakatli o'yinlarni:
dars maqsadiga moslashtirish,
yosh va individual xususiyatlarga qarab modifikatsiya qilish,
sport o'yinlariga tayyorlovchi bosqich sifatida qo'llash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganidadir.

Natijada o'yinlar tizimsiz, epizodik va metodik jihatdan asossiz qo'llanilib, kutilgan pedagogik samarani bermaydi. Bu holat o'qituvchining o'yinlarga bo'lgan ishonchini ham pasaytiradi va ularni dars jarayonidan tobora chetlashtirishga olib keladi.

Yuqoridagi muammolar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda harakatli o'yinlardan foydalanishdagi kamchiliklar tasodifiy emas, balki tizimli xarakterga ega. Ular dars mazmuni, o'quvchi motivatsiyasi va o'qituvchi metodik tayyorgarligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik buzilganligi bilan izohlanadi. Meningcha, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun harakatli o'yinlarga nisbatan

yondashuvni tubdan o'zgartirish, ularni jismoniy tarbiya jarayonining markaziy pedagogik vositasi sifatida qayta talqin etish zarur.

Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan samarali foydalanish tasodifiy yoki epizodik xarakterga ega bo'lmasligi lozim. Mening fikrimcha, harakatli o'yinlar dars mazmunining markaziy elementi sifatida rejalashtirilgandagina ular kutilgan pedagogik natijani beradi. Shu sababli ularni tizimli va maqsadli qo'llash mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tizimli qo'llash, avvalo, harakatli o'yinlarning darsning barcha bosqichlariga (kirish, asosiy va yakuniy qismlar) moslashtirilishini nazarda tutadi. Masalan, darsning kirish qismida diqqatni faollashtiruvchi qisqa o'yinlar, asosiy qismida jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlar, yakuniy qismida esa bo'shashtiruvchi va emotsional qoniqish beruvchi o'yinlardan foydalanish mumkin.

Mening qarashimga ko'ra, har bir harakatli o'yin aniq pedagogik maqsadga ma'lum jismoniy sifadni rivojlantirish yoki sport o'yinlariga tayyorlash vazifasiga xizmat qilishi zarur. Aks holda, o'yin faqat vaqtni to'ldiruvchi vositaga aylanib qoladi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy imkoniyatlari, psixologik holati va harakat tajribasi bir xil emas. Shu bois harakatli o'yinlarni tanlashda yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish metodik jihatdan muhim hisoblanadi.

Mening fikrimcha, o'yinlarni tanlash metodikasi quyidagi mezonlarga asoslanishi lozim:

o'yin harakatlarining murakkablik darajasi;

jismoniy yuklamaning intensivligi;

emotsional jozibadorlik va qiziqarlilik;

xavfsizlik va sog'liqni muhofaza qilish talablari.

Yosh xususiyatlariga mos kelmaydigan o'yinlar bolalarda ishonchsizlik, qo'rquv yoki tez charchash holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Aksincha, individual imkoniyatlarga moslashtirilgan o'yinlar har bir o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi va jismoniy rivojlanish jarayonini tabiiy tarzda qo'llab-quvvatlaydi.

Shaxsiy kuzatuvlarim shuni ko'rsatadiki, o'yinlarni modifikatsiya qilish (qoidalarni soddalashtirish yoki murakkablashtirish) o'qituvchidan yuqori metodik mahorat talab etadi. Biroq aynan shu yondashuv o'quvchilarning o'z imkoniyatlariga ishonchini oshiradi va jismoniy faollikni rag'batlantiradi.

Harakatli o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini sport o'yinlariga tayyorlashda muhim o'tish bosqichi vazifasini bajaradi. Meningcha, sportga yo'naltirishni to'g'ridan-to'g'ri murakkab sport mashqlari bilan emas, balki harakatli o'yinlar orqali amalga oshirish pedagogik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Masalan, to'p bilan o'ynaladigan harakatli o'yinlar basketbol, voleybol yoki futbol elementlarini o'z ichiga olgan holda tashkil etilishi mumkin. Bu jarayonda bola sport texnikasini anglamagan holda, tabiiy harakatlar orqali asosiy elementlarni o'zlashtiradi. Natijada sport o'yinlariga nisbatan qo'rquv yoki qiziqishsizlik emas, balki ijobiy munosabat shakllanadi.

Mening fikrimcha, harakatli o'yinlarni sport o'yinlariga tayyorlovchi vosita sifatida qo'llash mexanizmi bosqichma-bosqichlik tamoyiliga asoslanishi lozim. Avval erkin va qiziqarli o'yinlar, keyinchalik esa elementar sport harakatlarini o'z ichiga olgan murakkabroq o'yinlar joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv bolaning jismoniy rivojlanishi bilan birga sportga bo'lgan motivatsiyasini ham barqaror shakllantiradi.

Yuqorida bayon etilgan mexanizmlar shuni ko'rsatadiki, harakatli o'yinlar asosida jismoniy rivojlanishni ta'minlash faqat alohida metodik usullar majmui emas, balki yaxlit pedagogik tizimdir. Meningcha, ushbu tizim jismoniy tarbiya darslarini mazmunan boyitish, o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish va ularni sport o'yinlariga ongli ravishda yo'naltirish imkonini beradi.

Harakatli o'yinlarning pedagogik samaradorligi, avvalo, ular amalga oshiriladigan o'yin muhitining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Mening fikrimcha, o'yin muhiti uch asosiy omil — xavfsizlik, faollik va qiziqish uyg'unligida qurilgandagina jismoniy rivojlanishga xizmat qiladi.

Xavfsizlik o'yin muhitining eng muhim sharti bo'lib, maydonning holati, jihozlarning sifatli va yoshga mosligi, o'yin qoidalarining aniq va tushunarli bo'lishi orqali ta'minlanadi. Xavfsiz muhit bo'lmaganda o'quvchilarda qo'rquv hissi paydo bo'lib, bu ularning harakat faolligini pasaytiradi.

Faollikni ta'minlash esa o'yin jarayoniga barcha o'quvchilarni jalb etish bilan bog'liq. Meningcha, harakatli o'yinlarda navbat kutish vaqtining minimal bo'lishi, rollarning tez-tez almashib turishi o'quvchilarning doimiy harakatda bo'lishiga imkon yaratadi.

Qiziqish omili esa o'yinlarning emotsional jozibadorligi, musobaqaviy ruh va yangilik elementi bilan belgilanadi. Shaxsiy kuzatuvlarim shuni ko'rsatadiki, qiziqarli tashkil etilgan o'yin muhiti bolalarda harakatga nisbatan barqaror ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Harakatli o'yinlarni samarali tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Mening fikrimcha, buyruqbozlikka asoslangan yondashuv harakatli o'yinlarning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini cheklaydi.

Hamkorlikka asoslangan yondashuvda o'qituvchi o'yin jarayonining faqat nazoratchisi emas, balki yo'naltiruvchisi va rag'batlantiruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilarga o'yin qoidalarini muhokama qilish, o'yinni takomillashtirish bo'yicha taklif bildirish imkonining berilishi ularning faolligini va mas'uliyatini oshiradi.

Mening qarashimga ko'ra, o'qituvchi tomonidan o'yin jarayonida bildiriladigan ijobiy baho, rag'batlantiruvchi so'zlar va adolatli munosabat bolalarda o'ziga ishonchni kuchaytiradi. Natijada o'quvchi harakatni majburiyat emas, balki ixtiyoriy va zavqli faoliyat sifatida qabul qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishini faqat jismoniy tarbiya darslari doirasida cheklab bo'lmaydi. Meningcha, darsdan tashqari mashg'ulotlar harakatli o'yinlardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

To'garaklar, sport bayramlari, sinfdan tashqari tadbirlar va sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarda harakatli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish bilan birga, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Bunday mashg'ulotlarda rasmiylikning kamligi o'yin jarayonining erkin va ijodiy bo'lishini ta'minlaydi.

Mening fikrimcha, darsdan tashqari harakatli o'yinlar o'quvchilarda mustaqil harakat qilish, o'z tashabbusini namoyon etish va sportga bo'lgan qiziqishni chuqurlashtirish imkonini beradi. Aynan shu jarayonda sport o'yinlariga ongli yo'naltirish uchun zarur bo'lgan ichki motivatsiya shakllanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar shuni ko'rsatadiki, harakatli o'yinlar asosida jismoniy rivojlanishni ta'minlash o'yinlarning o'ziga emas, balki ularni tashkil etish muhitiga, pedagogik munosabatlarga va ta'lim jarayonining uzviyligiga bevosita bog'liq. Meningcha, ushbu shart-sharoitlar to'liq ta'minlangan taqdirdagina harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning samarali va barqaror vositasiga aylanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagilarni taklif etamiz:

boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslariga harakatli o'yinlar majmuasini joriy etish

o'qituvchilar uchun harakatli o'yinlarga oid metodik qo'llanmalar ishlab chiqish

milliy harakatli o'yinlardan keng foydalanish orqali jismoniy va ma'naviy tarbiyani uyg'unlashtirish harakatli o'yinlar asosida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini muntazam monitoring qilish

Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishini harakatli o'yinlar asosida samarali ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularni amaliyotga joriy etish jismoniy tarbiya darslarining mazmunini boyitadi, o'quvchilarning jismoniy faolligini oshiradi va sport o'yinlariga ongli yo'naltirish imkonini yaratadi.

Mazkur tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishida harakatli o'yinlarning pedagogik ahamiyati har tomonlama o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, harakatli o'yinlar boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatlariga mos keluvchi, jismoniy rivojlanishni ta'minlashda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan pedagogik vosita hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, harakatli o'yinlardan tizimli va maqsadli foydalanish o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, tezkorlik, chaqqonlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan birga, ularning o'yin faoliyatiga bo'lgan qiziqishini barqaror shakllantiradi. Shu bilan birga, harakatli o'yinlar o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, jamoada ishlash ko'nikmalari, intizom va mas'uliyat hissining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, boshlang'ich sinflarda harakatli o'yinlardan foydalanishdagi mavjud kamchiliklar asosan ularni jismoniy tarbiya darslarida yetarli darajada qo'llanilmasligi, o'quvchilarning jismoniy faolligining pasayishi hamda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligining yetishmasligi bilan bog'liq. Ushbu muammolarni bartaraf etishda harakatli o'yinlarni dars jarayonining markaziy elementi sifatida tashkil etish, yosh va individual xususiyatlarga mos o'yinlarni tanlash hamda ularni sport o'yinlariga tayyorlovchi vosita sifatida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqotda harakatli o'yinlar asosida jismoniy rivojlanishni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari aniqlanib, o'yin muhitini to'g'ri tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan yondashuv hamda darsdan tashqari mashg'ulotlardan samarali foydalanish zarurligi asoslab berildi. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish jismoniy tarbiya darslarining sifatini oshirish, o'quvchilarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarini harakatli o'yinlar orqali sport o'yinlariga yo'naltirishning individual yondashuvga asoslangan modellari, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan o'yin metodikalari hamda harakatli o'yinlar samaradorligini baholashning zamonaviy monitoring tizimlarini ishlab chiqish istiqbolli yo'nalishlar sifatida belgilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 45–47-betlar
2. Xo'jayev B.X. Bolalar jismoniy rivojlanishining pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 62–64-betlar
3. Mirzayeva D.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixofiziologik rivoji. – Toshkent: Universitet, 2020. – 88–90-betlar
4. Safarov R. Jismoniy tarbiya va shaxs kamoloti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 101–103-betlar
5. Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya va harakatli o'yinlar metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 53–55-betlar
6. Abdullayev A.Q. Bolalar jismoniy tarbiyasining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 71–73-betlar.